

## QALB KO'ZINGNI OCH EY INSON

**Ramazonxon Ismoilov Iskandar o'g'li**

*Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani Uyshun MFY.*

*63-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi*

Baxt yo'lidan oshib dovon,  
Mehrni qil o'zgaga ravon.  
Iymonni qilib bir javon,  
Qalb ko'zingni och ey inson.  
Ishlaringda ko'pdir nuqson,  
Tavba qil Allohga har on.  
Dunyodan ketasan bir kun,  
Qalb ko'zingni och ey inson.  
Bu dunyoda ko'pdir sinov,  
Savdo qilib yolg'on-aldov.  
Ertanggi hisob beayov,  
Qalb ko'zingni och ey inson.  
Esda tut o'tgunchi dunyo,  
Oqib o'tar misoli daryo.  
Bo'lib qolmagin hech aro,  
Qalb ko'zingni och ey inson.  
Allohga qilsang itoat,  
Har kun qil unda ibodat.  
Namozga deb ol tahorat,  
Qalb ko'zingni och ey inson.  
Tildan to'xtatma salovat,  
Diling topsin bir halovat.  
Kelmay dunyoga qiyomat,  
Qalb ko'zingni och ey inson.

" Vaqtni bekorga isrof qilmaylik"  
Yurtimni kezib yurgan chog'imda,  
O'zbekiston atalmish chamanni.  
Uning har bir chekka go'shasida  
Vaqtni bekorga isrof qilmaylik!  
Ota-bobolardan qolgan naql bor,  
Vaqt ketdi-naqding ketdi so'zi bor.  
Ulug'lar aytgan so'zlar bo'lsa kor,  
Vaqtni bekorga isrof qilmaylik!  
Vaqt g'animat bilib qo'ygin do'stim,  
Vaqt ulug' ne'mat eslagin do'stim.

Vaqt qaytib kelmaydi sezgin do'stim,  
Vaqtни bekorga isrof qilmaylik!  
Vaqtни unumli ishga sarflaylik,  
Vaqt oliy hakamdir unutmaylik.  
Vaqt degan shu bir jungina so'zni,  
Qadriga yetib isrof qilmaylik!

Yoshlarga o'rnak bo'ldingiz bugun  
Dildan sevib qildingiz har ishni,  
Nuqsonsiz qildingiz har dam ishni.  
O'ylamadingiz hech yoz-u qishni,  
Yoshlarga o'rnak bo'ldingiz bugun.  
Ulug'lar duosi sizga madad,  
Chekmaydi yurakingiz aslo dard.  
Savob ishlar qilish sizga odat,  
Yoshlarga o'rnak bo'ldingiz bugun.  
Ijodingiz bo'lsin azim chinor,  
Bu dunyo o'yindir asli qimor.  
Yaxshi ishlaringiz kezar diyor,  
Yoshlarga o'rnak bo'ldingiz bugun.  
Ijodda qo'ygansiz ta'mal toshni,  
Sinovlarda omon saqlang boshni.  
O'rgansiz ular sizdan bardoshni,  
Yoshlarga o'rnak bo'ldingiz bugun.  
Ijodda omad yor Bektosh Mansur,  
Yordamdasiz ko'rsangiz har yesir.  
Xato-gunohin Allohim kechir,  
Yoshlarga o'rnak bo'ldingiz bugun.  
Doim zafar tilaydi Ramazon,  
Demang xalqqa xizmatini arzon.  
Sizga kulganlar bo'ldilar xazon,  
Yoshlarga o'rnak bo'ldingiz bugun.

"Dada baxtimizga bo'ling Omon"  
Bo'ldirmayman o'zimga hech armon,  
Sizdan olardim men har kun Darmon.  
Qancha yurib bo'ldim bo'lib sarson,  
Dada baxtimizga bo'ling omon.  
Tirikligi mening uchun davlat,  
Duosidan yurdim to'kib savlat.  
Hech topmadim sizdek oshna, ulfat,  
Dada baxtimizga bo'ling omon.

Yonimda ekan izlayman men baxt,  
Kimdan kam bo'ldim kimda bor toj-taxt.  
Yo'limdan yurdim qadam bosib shahd,  
Dada baxtimizga bo'ling omon.  
Hech chekmaydi yuragim aslo dard,  
Hatto yuqdirmayman qalbimga gard.  
Qayerda qoldi do'stim degan mard,  
Dada baxtimizga bo'ling omon.  
Sizni bizga etgan axir ato,  
Buning uchun senga shukr yo, xudo.  
Bizni ayirmasin sizdan judo,  
Dada baxtimizga bo'ling omon  
yugurib yeldim men kimlar uchun,  
Xizmat qilib soxta do'stlar uchun.  
Yordam qilarmi Ramazon uchun ,  
Dada baxtimizga bo'ling omon.

Holing abgor bo'lib qolganda yomon  
Do'stlaring ham bo'lib ketarkan dushman.  
Kimga kim bilib bo'lmas qaysi tomon  
Mening soxta do'stlarim.  
Yordam so'radim o'zin olib qochdi,  
Pulim bo'lganda bag'rini keng ochdi.  
Xizmat qilganlarini minnat qildi,  
Mening soxta do'stlarim.  
Keldingiz chiqmaydi deb meni qahrim,  
Tashlab ketganingizda yetdi sabrim.  
Qaytib keldingizmi kelganda davrim,  
Mening soxta do'stlarim.  
Yonimda yurdi qildim men himmatim,  
Do'stlar yonimda bo'lsin bu niyatim.  
Shunday ekan balki,shunday qismatim,  
Mening soxta do'stlarim.  
Meni bossa har lahzada bir g'aflat,  
Do'stlar qilib qoldi har doim nafrat.  
Yo'g'imda qildilar ortimdan g'iybat,  
Mening soxta do'stlarim.  
Sotqinlik qilib topdingizmi sharaf  
Do'stlar aytingiz bo'ldingiz kim taraf.  
Ko'zingiz bo'yadimi oltin - sadaf,  
Dunyo yig'gan do'stlarim.  
Hamma do'stlar ham biling shundaymasdir,

Yaxshilari ham bor-ku, yo‘q emasdir.  
Ular uchmas, oltin - zar izlamasdir,  
Mening chin do‘stlarim.  
Meni qoplasa kunduz kuni zulmat,  
Ular menga turib beradi madad.  
Men ularga, ular menga bil hurmat  
Saqlagan qadrdon do‘stlarim.  
Men dunyolarni qilganda har orzu  
Do‘stlarim ketib qolar, qoldi ozi.  
Yoningda turadi Ramazon o‘zi  
Mening qadri baland do‘stlarim.

"Ramazon keldi"

Uzoq kutgandik keldi qutlug‘ sana,  
Savob olaylik ketmasidan yana.  
Oylar ichida oylarning sultoni,  
Ramazon oyi kirib keldi mana!  
Mana yillar o‘tib keldi bir pastda,  
Insonlar tutar ro‘za sekin-asta.  
Ko‘ngil so‘rab qo‘ying bemor-u xasta,  
Ramazon oyi kirib keldi mana!  
Ro‘za tuting vujud orom olarkan,  
Bu kunda savobimiz jam bo‘larkan.  
Qalblarda unar gul,emasdir tikan,  
Ramazon oyi kirib keldi mana!  
Yo‘qlab qo‘ying yor-u birodarlarni,  
Siz bilan oshgandi qir-adirlarni.  
Ayyom bilan tabriklayman qadrdonni,  
Ramazon oyi kirib keldi mana!  
Ro‘za tutar insonlar sahar bilan,  
Yemas inson taomni zahar bilan.  
Menga burmangiz yuz aslo qahr bilan,  
Ramazon oyi kirib keldi mana!  
Ramazonxon Ismoilov  
Telefonga boshimizni egdik  
Ulug‘lar aytganda tinglamay so‘z  
Eshitmasdan qoshimizni kerdik.  
Yolg‘onlarga burib doimo yuz  
Telefonga boshimizni egdik.  
Turdik dunyodan xabardor bo‘lib  
Yurdik boshga tushganini kurib  
Qancha insonlar turganda turib

Telefonga boshimizni egdik.  
O'tkazib vaqtni o'yinlar bilan  
Fursatimizni afsus boy berdik.  
Endi barmoq tishlab afsus bilan  
Telefonga boshimizni egdik.  
Ko'zga ko'rindimi tilladan taxt  
Yoki ekanmikan bu ulkan baxt.  
Go'yo qilganmiz dilda har dam ahd  
Telefonga boshimizni egdik.  
Dunyoni qamrab oldi internet  
Diydor g'animatligin unutdik.  
Dushmanlar bizlardan nari tur, ket  
Telefonga boshimizni egdik.  
Tunlari telefonga termulib  
Kunduzi yursa ko'zlar yumilib.  
Shuncha inson turganda, o'tinib  
Telefonga boshimizni egdik.  
Nega buncha o'jar ekan inson  
Qaytar dunyo ekanin bilmadik.  
Axir chiqadi tandan bir kun jon  
Telefonga boshimizni egdik.  
Gar maqtaganda ketibmiz jo'shib  
Goh soydan soyga oqibmiz toshib.  
Bilmadim ne - ne tog'lardan oshib  
Telefonga boshimizni egdik

Ahdda ahildir Amakilar  
Qardoshin ko'rar bahonada,  
Topasan har kun Choyxonada.  
Hatto bo'ladi to'yxonada,  
Ahdda ahildir Amakilar.  
Hammaga qilar bir xil yordam,  
Nohaqqa bosh egmaydi hech ham.  
Yuraklar chekkanda dard-sitam,  
Ahdda ahildir Amakilar.  
Ular kelsa ketar har balo,  
Hech kim chekmaydi agar nola.  
Aytay odamlarga bir yo'la,  
Ahdda ahildir Amakilar.  
Hech bo'lmaydi o'zgalardan kam,  
Davralarda bo'lar to'lib jam.  
Milliarder bo'lib ketsa ham,

Ahdda ahildir Amakilar.  
Yo‘qchilikdan tashlab ketar do‘st,  
Sabab qilar har neni kam-ko‘st.  
Shodliklar kelganda ustma-ust,  
Ahdda ahildir Amakilar  
Alloh sevgan bo‘lmaydi hech xor,  
Doimo kuladi omad yor.  
Ramazonni aytar so‘zi bor,  
Ahdda ahildir Amakilar.

Unutmayman  
Dedim sizni mehribon, g‘amxo‘r ona,  
Siz ekansiz beminnat bo‘lib dona.  
Yashashga bo‘lsin mayli kichik xona,  
Unutmayman sizni hech qachon ona.  
Dunyo ishi hech tugamas, bas yetar,  
Bari bir kunlik, hayot o‘tar-ketar.  
Men do‘stlarni, do‘stlar meni unutar,  
Unutmayman sizni aslo, hech dada.  
Ilm berib bizlarga hech tolmadingiz,  
Ilm beray deb darsdan ham qolmadingiz.  
Mehnatingiz uchun haq olmadingiz,  
Unutmayman sizni aziz ustozlar.  
Uchar edik qush bo‘lib samolarda,  
Yarashardik urishsakda maboda  
Bizlar edik axir bir jamoada,  
Unutmayman sizlarni qadrdon do‘stlar.  
Sen bilan bilsang bittadir, bir yo‘lim,  
Ajratazi bizni birgina o‘lim.  
Sensiz hech bir ishga bormaydi qo‘lim,  
Unutmayman seni bil shuni do‘stim.  
Sizga bir gap aytay kelmasin malol,  
Non-tuzimni topayin faqat halol.  
Dunyolarga bo‘lsamda shoh-u qirol,  
Unutmayman hech mehribon Allohni.  
Boshimga tushganda turli xil sinov,  
Indamadim turtib o‘tsa ham birov.  
Musibatlarim ketgandan tez darrov,  
Unutmayman hech ham pok iymonimni.  
Xatolar qildim, hatto bilmay gunoh,  
Kechirgin meni ey, Rabbim ey, Alloh.  
Tavbamga o‘zing bo‘lding yolg‘iz guvoh,

Unutmayman oxirat-qiyomatni  
Dunyo ishiga berilsang bir jadal,  
Hisobi bor bir kun to‘laysan badal.  
Adolat dunyoga mayli, bo‘l qadal  
Unutmayman haqni, bordir haqiqat.  
Yurtdan kechish juda ham juda qayg‘u,  
Yurtni sevish shirindir, shirin tuyg‘u.  
Kimlargadir bo‘lsada bu bir kulgu,  
Unutmayman hech ham men aziz yurtim.

Kurashga Qolmadi Kuchim  
Yiqilganda turish odat,  
Qiyamoqda meni bir dard.  
Sizlar bo‘lmasangiz madad,  
Kurashga Qolmadi Kuchim.  
Demang darmoni bor uning,  
Bardamsan, Kurashgin deding.  
Bilmaysiz sinovga mening,  
Kurashga Qolmadi Kuchim.  
Oyoqqa tur, qilib yordam,  
Yaxshiliklar menga malham.  
Biroq bu eng katta alam,  
Kurashga Qolmadi Kuchim.  
Kimdir bildi burdim yuzim,  
Qat‘iydir aytgan har so‘zim.  
Manzilni ko‘zlardi ko‘zim,  
Kurashga Qolmadi Kuchim.  
Tavba qilay yaqin o‘lim,  
Maqsad bittadir, bir yo‘lim.  
Marra sari yetmas qo‘lim,  
Kurashga Qolmadi Kuchim.

Biz tomondan ham quyosh chiqadi  
Madhiya bitdingiz menga atab,  
Ortimdan menga g‘iybatlar bitib.  
Sizning tanqid toshlaringiz sabab,  
Biz tomondan ham quyosh chiqadi.  
Boshni toshga urib bo‘ldingiz dalli,  
Navbati kelganda uni gali.  
Ko‘p ham kulavermang erta hali,  
Biz tomondan ham quyosh chiqadi.  
Dedingiz ne darding bor qani ayt,

Bir kun o'qiysiz yozganimda bayt.  
Sizlar menga imkon bergan kun, payt,  
Biz tomondan ham quyosh chiqadi.  
Yaxshiliklaringa guvoh jahon,  
Savoblarim bilan jannat nishon.  
Aslo tuhmatga sinmayman ishon,  
Biz tomondan ham quyosh chiqadi.  
Do'stlar ketganda ko'ndim sabr qilib,  
G'iybatlar qilgandi qo'ydim kulib,  
Hech xavotir olmang fursat o'tib,  
Biz tomondan ham quyosh chiqadi.  
Aldab meni qildingiz siz sarson,  
Sotdingiz pul deya sira arzon.  
Hech qadring qolmaptida Ramazon,  
Biz tomondan ham quyosh chiqadi.

Mardlikda timsoli jadidlar  
Xalqini boshlab yo'lga sarbon,  
Yurtini obod qilar bog'bon.  
Vatan deb bo'ldi ular qurbon,  
Mardlik timsoli jadidlar.  
Aslo unutmay xalqin dilda,  
Qanchasj sevdi yurtni tilda,  
Nomi dostonidir bugun elda,  
Mardlik timsoli jadidlar.  
Xalqi uchun jonini berdi  
Yetmadi qonini ham berdi.  
So'nggi qolgan nonini berdi,  
Mardlik timsoli jadidlar.  
Yozib ularga she'r Ramazon,  
Ular xizmatin demang arzon.  
Qanchalar bo'ldi axir sarson,  
Mardlik timsoli jadidlar.  
Bugun xotirasin qil obod,  
Sen ulardan qarzdorsan umrbod.  
Ertaga bo'lganda hisobot,  
Mardlik timsoli jadidlar.  
Men sevdim jadid bobolarim,  
Ular menga berdi ko'p bilim.  
Siymosiga tashlab ko'z qirim,  
Mardlik timsoli jadidlar.  
Ramazonxon Ismoilov



Bu mening  
Voz kechdim ko'zda yosh bilan,  
Yuragimda sog'inch bilan.  
Imkon bo'larmi bilmadim,  
Bu meningdir armonlarim.  
Ko'ksimni tirnab bir alam,  
Og'rirdi tuz sepsa yaram.  
Og'rig'iga chidab bardam,  
Bu mening dard-alamlarim.  
Menda qolmaydi hech bir kuch,  
Kelganda qarshimda kim duch.  
Tashlab ketdi do'stlarim tinch,  
Bu mening zo'r azoblarim.  
Xayr deyman-u lekin biroq,  
Hammasi oldinda yiroq.  
Unga intilarman tezroq,  
Bu mening baxt-orzularim.  
Ortimdan eshitdim bir so'z,  
O'nglay olmadim ming afsus.  
Kim ekan u donishmand shaxs,  
Bu meningdir dushmanlarim.  
Kimdir menga bersa azob,  
O'zi bo'lar ming darg'azab.  
Hech ko'rolmas kelsa mansab,  
Bu mening hasadgo'ylarim.  
Kimga aza, kimga maza,  
Gohida qilar kim mazza.  
Meni qiynaydi bir narsa,  
Bu mening o'y-xayollarim.  
Katta ketasan ey, inson,  
Bilsang gar zumda chiqar jon.  
Men kerilmasman bil har on,  
Bu mening oltin-qoidam.  
She'r yozay desam so'zlar ko'p,  
She'r yozay desam kim der xo'p.  
Kimlar ko'zga soladi cho'p,  
Bu dunyoning baxillari.

Nigina opa  
Bugun biz xayrlashadigan ekan kun,  
Qalbda g'amlar yig'iladi og'ir kun,  
Sizlarni qutlab qolaman men bu kun,

To'yingiz muborak Nigina opa,  
Ko'nglingizda bo'lmasin hech ham armon,  
Tabriklayman so'zlarni terib marjon,  
Hamma qatori yuring kulib shodon,  
To'yingiz muborak Nigina opa.  
Kelin bo'lganlarga baxt tilab avval,  
Yaxshi kuniga bo'lmas hech kim xalal.  
Ota uydan ketadigan kun 25-fevral,  
To'yingiz muborak Nigina opa.  
Qayerda bo'lsangiz ham bo'ling omon,  
Baxtlar tilayman men sizlarga hamon,  
To'kin-sochin bo'lib turgan bu zamon,  
To'yingiz muborak Nigina opa.

Ramazonxon Ismoilov

Sizga havas bilan boqar yoshlar  
Alamdan kuyib bo'ldingiz shoir,  
Darddan ezildi yurak deb shoir.  
She'rlaringiz bilmam kimga doir,  
Sizga havas bilan boqar yoshlar.  
Hayotda kamtargina insonsiz,  
She'riyat ahliga mehribonsiz.  
Bizlar uchun juda ham keraksiz,  
Sizga havas bilan boqar yoshlar.  
Yaxshi kuningizga otmasin tosh,  
Qarshingizda yomonlar egsin bosh.  
Halol mehnat bilan yedingiz osh,  
Sizga havas bilan boqar yoshlar.  
Xalq qalbdan mehri oshmoqda asta,  
Duo qilar keksalar bir pastda.  
Xalq duosidan bo'lmaysiz xasta,  
Sizga havas bilan boqar yoshlar.  
O'zbek xalqi sevar Bektosh Mansur,  
Xalq dardi jamlangan to'la unsur.  
She'ringizda yo'qdir aslo qusur,  
Sizga havas bilan boqar yoshlar.  
Obod bo'lsin ko'ngil bog'laringiz,  
Qulamasin zafar tog'laringiz.  
Shoirsiz cho'qqida Chog'laringiz,  
Sizga havas bilan boqar yoshlar.